



Standart funksiyalar va protseduralar

1. Qanday funksiyalarga standart funksiyalar deyiladi?

Dastur translyatori ta'minotiga kiritilgan funksiyalar **standart funksiyalar** deyiladi.

2. **Abs(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning absolyut qiymati (moduli) — $|x|$.

3. **Abs(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

4. **Abs(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

5. **Abs(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

6. **Sin(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? **x** ning sinusi (radian o'.b.) — **sinx**

7. **Sin(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

8. **Sin(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

9. **Sin(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

10. **Cos(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning kosinusi (radian o'.b.) — **cosx**

11. **Cos(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

12. **Cos(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

13. **Cos(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

14. **Arctan(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning arktangensi — **arctgx**

15. **Arctan(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

16. **Arctan(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

17. **Arctan(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

18. **Sqrt(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning kvadrat ildizi — ($x > 0$).

19. **Sqrt(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

20. **Sqrt(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

21. **Sqrt(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

22. **Sqr(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning kvadrati — x^2

23. **Sqr(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

24. **Sqr(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

25. **Exp(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? e^x ($e = 2.718282\dots$)

26. **Exp(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

27. **Exp(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

28. **Exp(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

29. **Ln(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning natural logarifmi ($x > 0$).

30. **Ln(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

31. **Ln(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

32. **Ln(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

33. **Frac(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning kasr qismi {**x**}

34. **Frac(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

35. **Frac(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

36. **Frac(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

37. **Int(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x* ning butun qismi $\lfloor x \rfloor$

38. **Int(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun va haqiqiy.*

39. **Int(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

40. **Int(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*

41. **Random** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? **(0,1)** oraliqdagi tasodifiy son

42. **Random** funksiyasining argument turi qanday? *Argumenti yo'q.*

43. **Random** funksiyasining qiymat turi qanday? *Haqiqiy.*

44. **Random** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*
45. **Random(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? **|0, x)** *oraliqdagi tasodifiy son.*
46. **Random(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun Word.*
47. **Random(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Butun Word.*
48. **Random(x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik funksiyalar.*
49. **Trunc (x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x ning butun qismini chiqaradi.*
50. **Trunc (x)** funksiyasining argument turi qanday? *Haqiqiy.*
51. **Trunc (x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Butun LongInt.*
52. **Trunc (x) funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi?** O'zgaruvchilar turini o'zgartiruvchi funksiyalar.
53. **Round (x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x ni butunga yaxlitlaydi.*
54. **Round (x)** funksiyasining argument turi qanday? *Haqiqiy*
55. **Round (x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Butun LongInt*
56. **Round (x) funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi?** O'zgaruvchilar turini o'zgartiruvchi funksiyalar.
57. **Odd (x) funksiyasi qanday vazifani bajaradi?** **x** — toq son boisa «rost» qiymat oladi.
58. **Odd (x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun.*
59. **Odd (x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Mantiqiy.*
60. **Odd (x) funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi?** O'zgaruvchilar turini o'zgartiruvchi funksiyalar.
61. **Chr(x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? **x** ning o'nlik **ASCII** kodiga mos belgini chiqaradi.
62. **Chr(x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun Byte.*
63. **Chr(x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Belgili Char.*
64. **Chr(x) funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi?** O'zgaruvchilar turini o'zgartiruvchi funksiyalar.
65. **Ord (m) funksiyasi qanday vazifani bajaradi?** 'm' belgisining o'nlik **ASCII** kodini chiqaradi.
66. **Ord (m)** funksiyasining argument turi qanday? *Belgili Char.*
67. **Ord (m)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Butun Byte.*
68. **Ord (m) funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi?** O'zgaruvchilar turini o'zgartiruvchi funksiyalar.
69. **Ins (x)** funksiyasi qanday vazifani bajaradi? *x ni qiymatni 1 ga oshiradi (x:=x+1).*
70. **Ins (x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun.*
71. **Ins (x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Butun.*
72. **Ins (x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik protseduralar.*
73. **Dec (x) funksiyasi qanday vazifani bajaradi?** **x** ni qiymatni 1 ga kamaytiradi (**x:=x-1**).
74. **Dec (x)** funksiyasining argument turi qanday? *Butun.*
75. **Dec (x)** funksiyasining qiymat turi qanday? *Butun.*
76. **Dec (x)** funksiyasi qanday funksiyalar toifasiga kiradi? *Matematik protseduralar.*
77. **π** sonini ifodalash uchun Paskalda qanday belgi ishlatiladi? **π** sonini ifodalash uchun Paskalda maxsus **Pi** o'zgarmas (konstanta) ajratilgan (**Pi=3.1415...**).